

FARG'ONA VODIYSIDAGI ILK SHAHARSOZLIK MADANIYAT (CHUST MISOLIDA)

Ahmadov Ahmadjon Asror o'g'li

BuxDU "Arxeologiya va Buxoro tarixi" kafedrası, t.f.f.d. (PhD)

Narzulloyev Farruxbek

BuxDU Tarix va yuridik fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Farg'ona vodiysidagi ilk shaharsozlik namunasi bo'lmish Chust madaniyati va unda shaharsozlikning shakllanishi bilan bog'liq jihatlar ilmiy tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Chust, mudofaa tizimi, ark, ichki shahar, o'troq dehqonchilik, ko'chmanchi chorvachilik, madaniyat, shaharsozlik.

Ko'pchilik tadqiqotchilarning e'tirof etishlaricha, o'ziga xos taraqqiyot bosqichini bosib o'tgan ilk shaharsozlik madaniyati zanjirida Farg'ona vodiysi ham kiradi. Farg'ona vodiysida sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi urbanizatsiya jarayonlarining tezlashuviga olib kelgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida vodiyning qadimgi davri inson va tabiat o'rtasidagi ko'pgina aniqliklar kiritildi. Farg'ona zaminida bir tomonidan dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikning rivojlanishi, ikkinchi tomondan qazilma boyliklarga boyligi miloddan avvalgi II-I ming yillik boshlarida vodiya shaharsozlik madaniyati shakllanishiga olib keldi. Farg'onada ilk ziroatchilik aholi maskanlari qishloq ko'rinishida vujudga kelib, dastlab mudofaa devorlari bilan o'ralmagan.

Farg'onada qadimgi shaharlar me'moriy rejaviy tuzilishining asosiy mohiyati qal'a-qarorgoh, ishlab chiqarish hamda turli turar-joylar mavjudligi o'z aksini topgan. Farg'ona vodiysida ilk shaharsozlik madaniyati ildizlari Chust hududidan topilganligi sababli fanga "Chust madaniyati" nomi bilan kirgan. Chust tarixi haqida gapirar ekanmiz albatta Buvanamozor yonidagi tepalikka, u yerda olib borilgan arxeologik tadqiqotlarga borib taqaladi. Bu hududda arxeologik tadqiqot ishlarini akademiklar Yahyo G'ulomov, Ahmadali Asqarov, olimlar V.E.Vorones, V.I.Sprishevskiy SSSR Fanlar akademiyasi arxeologiya institutining katta ilmiy xodimi Zadneprovskiy olimlar E.A.Volkova, B.X.Matboboyev, U.Rahmonov, Xayrullo Muhammedovlar olib borgan bo'lib, ularning fikricha, qadim Chust bronza davri miloddan avvalgi II ming yilliklarga to'g'ri keladi.

Chust madaniyati yodgorliklarini bevosita ikki bosqichga bo'lishimiz mumkin. Birinchi bosqich, miloddan avvalgi XII-IX asrlar, ikkinchi bosqich miloddan avvalgi VIII-VII asrlar bilan sanaladi. 1933-1934 yillarda B.A.Latinin Eylaton manzilgohini tekshirish jarayonida ilk marotaba bu madaniyatga tegishli bo'lgan

naqshli sopollarni aniqlagan. Ularni keyinchalik 1939-yili KFK qurilish hududida T.G.Obulduyeva ham naqshli sopollarni qayd etgan. So'nggi yillarda Farg'onadagi bronza davri aholisining asosiy mashg'uloti dehqonchilik qilganligi haqida arxeologik ma'lumotlar ochildi. Qadimgi dehqonlar faqat tabiiy suv bo'ylarini o'zlashtiribgina qolmasdan balki, suv chiqarish oson bo'lgan daryo va soy bo'ylaridan kichkina kanallar chiqarish yo'li bilan ham xo'jalik yuritganlar. Buning isboti sifatida hozirgi Andijon viloyatida joylashgan Dalvarzintepa va Ashqoltepani yirik suv manbasi- Qoradaryo havzasida joylashganligini keltirishimiz mumkin. Chust yodgorligi esa kichkina soy yaqinidagi qadimgi buloq bo'yida joylashgan. Umuman olganda, Farg'ona ilk dehqonchilik madaniyatining 80 dan ortiq yodgorliklari aniqlangan. Chust madaniyatini o'rganishda alohida ahamiyatli olim Voronets asosan, ushbu yodgorlikdan topilgan sopol buyumlar Janubiy Turkmanistonning Anov madaniyatlari bilan tashqi o'xshashligiga asoslanib hudud sanasini miloddan avvalgi III-II ming yillik deb xulosaga keladi. A.P.Okladnikov bu sanani qabul qilib o'zing "Qirg'iziston tarixi" asarida Chust sanasini miloddan avvalgi V ming yillik deb beradi. Chust madaniyatining ilk temir davriga oid manzilgohlar maydoni jihatidan uch xil turi ajralib turadi. Maydoni 13-25 ga. dan iborat yirik manzilgohlar (Dalvarzintepa, Ashqoltepa), maydoni 4-5 ga. dan iborat o'rtacha manzilgohlar (Chust, Dehqontepa va Xo'jambog') va kichik manzilgohlar. Yirik va o'rtacha manzilgohlar qadimgi shahar markazini va kichik manzilgohlar esa dehqonchilik qishloqlarini tashkil etgan. Farg'ona vodiysining eng yirik manzilgohi Dalvarzintepa hisoblanib, maydoni 25 ga. dan iborat.

1952-yilda Y.A.Zadneprovskiy Sharqiy Farg'ona madaniyati jihatidan Chustga o'xshash ikkinchi Dalvarzin manzilgohini topdi. Manzilgoh boshqalaridan farqli o'laroq to'rt qismdan iborat bo'lib, ularning uchta qismi mudofaa devori bilan o'rab olingan. Ark manzilgohning shimoli-g'arbiy qismida bo'lib, maydoni 2,2 ga. joyda o'rin olib, atrofi xom g'ishtdan qurilgan qalinligi 2,5 m mudofaa devoriga ega. Manzilgohning atrofi madaniy qatlam ustidan ikki tomoniga xom g'isht terib, ichiga tosh, g'isht va loy to'ldirib qurilgan mudofaa devori bilan o'rab olingan.

Dalvarzintepaning uchinchi qismi 5 ga. dan iborat bo'lib, alohida mudofaa devoriga ega. Bu yerda madaniy qatlam uchramaydi, ochiq joydan iborat. Arxeologlarning fikricha undan harbiy xavf paytida atrofda yashaydigan aholi yoki chorva mollari jon saqlaydigan joy sifatida foydalanilgan degan fikrni ilgari suradilar. Ushbu belgilardan xulosaga kelishimiz mumkinki Dalvarzintepa ilk shahar ko'rinishidagi yodgorlik deyishimiz mumkin. Zadneprovskiyning fikricha manzilgoh miloddan avvalgi II ming yillikning so'nggi choragidan boshlab ma'lum muddat Farg'ona vodiysining iqtisodiy va madaniy markazi bo'lib xizmat qilgan. Farg'ona vodiysining g'arbida Chust shahri yaqinida shu nomli manzilgoh joylashgan. Umumiy maydoni 4 ga. dan iborat. Manzilgohning shimoli-g'arbiy qismida joylashgan ark (1.5 ga.) mudofaa devori bilan o'rab olingan. Chust madaniyatining ilk bosqichida aholisi

yerto'la va yarim yerto'la uylarda yashagan. Ikkinchi bosqichida uy joylar yerning ustida paxsa va xom g'ishtdan qurila boshlaydi. Shaharning rivojlanishi bevosita hunarmandchilik bilan bog'liq hisoblaniladi. M.X. Isomiddinov qadimiy Sug'd madaniy yodgorliklarini o'rganar ekan Chust madaniyati davri sopol idishlarning ishlab chiqarish usullariga e'tibor unda Zarafshon vohasi bronza davri yodgorligi sopol idishi bilan solishtirib ularning deyarli farqi yoq ekanligini ularning orasidagi davriy sanasini aniqlashda asosiy e'tiborni sopol idishlarning tipologik jihatlariga qaratadi. Shunga o'xshash o'ziga xos xususiyatlariga asoslanib M.X. Isomiddinov Chust madaniyati Zarafshon vohasining Sarazm madaniyati bilan tengdosh bo'lishi kerak deb hisoblaydi tadqiqotlari davomida.

Bunga dalil tariqasida aytish mumkinki oxirgi 15-20 yil davomida Markaziy Osiyoning qator ilk temir davri yodgorliklaridan yangi radiokarbon tahlillari natijasida yodgorliklarning davriy sanasi miloddan avvalgi XIV-XVI asrlarga qadimiylashtirildi. Chust madaniyatida hunarmandchilik mahalliy ma'dan konlariga asoslangan bo'lib, Dalvarzintepa yodgorligidan bronza quyish ustaxonasining o'rni ochilgan. Bronzadan yasalgan o'roq, iskana, pichoq, bigiz, kabi anjomlari, kamon paykoni, nayza va boshqa qurollar topilgan. Dalvarzintepa yodgorligidan miloddan avvalgi VIII asrga oid temirdan yasalgan pichoq parchasi va temir toshqollar topilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mahobatli mudofaa devorlari arkka ega Chust madaniyati yodgorligi bo'lmish Dalvarzinda taxminan 2900-2700 yil muqaddam shaharsozlik madaniyatining dastlabki bosqichi shakllana boshlagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Anorboyev A.A, Islomov U.I., Matboboyev B.X. O'zbekiston tarixida Qadimgi Farg'ona. -T., 2001-yil.
2. Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. -T., 1990-yil.
3. Eshov B.J. Qadimgi O'rta Osiyoning shaharlari tarixi. -T., 2006-yil.
4. Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы. МИА.М-Л 1962.вип 118.
5. Ibragimov R.Z. O'rta Osiyo arxeologiyasi. -T., 2020-yil.
6. Матбобоев Б.Х. Локальные варианты Чустской культуры Ферганы. -Л., 1985.
7. Sagdullayev A.S. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. -T., 2004-yil.
8. Shahrillo, S. N. (2024). INDEPENDENT WORK FORMES THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF A FUTURE TEACHER. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(3), 23-26.
9. Akhmadjon, A. (2023). HISTORY OF BUKHARA-AFGAN RELATIONS IN THE PROCESS OF INCLUSION INTO THE RUSSIAN CUSTOMS SYSTEM. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 3(3), 39-46.

10. Akmalovna, Q. G., & Asror, A. A. (2023). Formation of Religious Ceremonies. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 4(3), 167-172.
11. Ҳайитов, Ш., & Аҳмадов, А. (2022). БУХОРО АМИРЛИГИДА РУС-ТУЗЕМ МАКТАБИНИНГ ОЧИЛИШИ ВА ФАОЛИЯТИ ТАРИХИДАН (АРХИВ ҲУЖЖАТЛАРИ АСОСИДА). *Journal of Integrated Education and Research*, 1(3), 8-13.
12. Asror o'g'li, A. A. (2022). History of Afghanistan-Bukhara Relations in the Process of Incorporation of Bukhara Emirate into Russian Customs System. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(11), 339-342.
13. Hayitov, S. (2023). XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHLARIDAGI TURKMANLAR ETNOGRAFIYASIGA OID AYRIM MA'LUMOTLAR SHARQSHUNOS DN LOGOFET TALQINIDA. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 43(43).
14. Zaripov J. G., Akhmadjon A. A. THE ROLE OF AFGHANISTAN IN DIPLOMACY OF BUKHARA EMIRATE (XVIII-XIX CENTURIES) //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 3. – №. 2. – С. 226-230.